



THE CONCEPT OF GENDER EQUALITY IN HIGHER
EDUCATION

O'tkirova Zuxra Axmedjanovna

2st-year student in Pedagogy International Innovative University

Abstract. This article analyzes the introduction of the concept of gender into science, gender equality, gender issues in social life in the Republic of Uzbekistan, and the political and social situation of gender equality relations worldwide. Also, the specific aspects of the implementation of the gender approach to the higher education system, the creation of equal rights and opportunities for women and men in higher education are interpreted from a scientific point of view.

Key words: gender equality, gender approach, right, opportunity, guarantee, women, men, higher education, student, education, advisory council, effective mechanism.

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA GENDER TENGLIGI
TUSHUNCHASI

Xalqaro innovatsion universiteti, Pedagogika yo'nalishi 2 kurs talabasi

O'tkirova Zuxra Axmedjanovna

Anontatsiya. Mazkur maqolada gender tushunchasing fanga kirib kelishi, gender tenglik, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayotda gender masalalari, dunyo miqyosida gender tenglik munosabatlarining siyosiy-ijtimoiy holati tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etishning o'ziga xos jihatlari, oliy ta'lim olishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilishi masalalari ilmiy nuqtai nazardan talqin etilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender yondashuv, huquq, imkoniyat, kafolat, xotin-qizlar, erkaklar, oliy ta'lim, talaba, tarbiya, maslahat kengashi, samarali mexanizm.

КОНЦЕПЦИЯ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В ВЫСШЕМ
ОБРАЗОВАНИИ





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

**Уткирова Зухра Ахмеджановна
студентка 2 курса по направлению «Педагогика»**

Международный инновационный университет

Аннотация. В данной статье анализируется внедрение понятия гендера в науку, гендерное равенство, гендерные проблемы в общественной жизни в Республике Узбекистан, а также политическая и социальная ситуация отношений гендерного равенства во всем мире. Также с научной точки зрения интерпретируются конкретные аспекты реализации гендерного подхода в системе высшего образования, создания равных прав и возможностей для женщин и мужчин в сфере высшего образования.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерный подход, право, возможность, гарантия, женщины, мужчины, высшее образование, студент, образование, консультативный совет, эффективный механизм.

O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta-Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi, Tojikiston 70-chi o'rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu ro'yxatda hech qanday ma'lumot ko'rsatilmagan

O'zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O'zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida“gi Qonuni qabul qilingan. O'zbekistonda Gender tenglik bo'yicha





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Barcha madaniy-ijtimoiy hodisalar kabi gender ham vaqt bilan bog'liq holda jarayonli o'zgaruvchan xarakterga ega. Gumanitar fanlar uchun gender umumiy ilmiy kategoriya sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham gender yondashuv prinsiplari barcha gumanitar sohalar kabi pedagogikada ham birday qo'llaniladi. Biroq gender prinsiplari pedagogikaning o'ziga xos jihatlari va metodlari bilan bog'liq holda amal qiladi. Shuning uchun ham erkak va ayollar orasidagi o'zaro o'xshashliklar va farqli jihatlari gender tadqiqotlarning asosiy predmeti hisoblanadi. Bu tasavvurlar maskulinlik va feministik nazariyada o'z ifodasini topgan. Tadqiqotchilar ushbu dalillarni ijtimoiy ong maxsuli sifatida baholaydilar. Shu nuqtai nazardan yondashganda gender tadqiqotlar muayyan tasavvurlar hamda shaxslararo munosabatlarni o'rganadi. Muayyan shaklga mansublik hamda shaxsiy ekspressiv modelga xos stereotiplar, shaxsning xulq-atvori va bahosi, muayyan jinsga mansublikni ifodalovchi konstruksiyalar shaxsning genderga oid qarashlarini boyitish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Muayyan jamiyatga mansub bo'lgan gender tiplar haqidagi tasavvurlar aniq tarixiy davr uchun xosdir. Gender stereotiplar shaxsning yoshligidan boshlab, ijtimoiylashish jarayonida shakllanadi. Bunda jamiyatda qaror topgan madaniy xulq-atvor me'yorlari, shaxslararo madaniy munosabatlar, urf-odatlar va muhit alohida ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiylashish mahsuli sifatida alohida ijtimoiy rollarni o'zlashtirish ko'nikmalari namoyon bo'ladi. Turli bosqichlarda ijtimoiylashish omili sifatida kiyimlar, so'z vositasida amalga oshirilgan murojaatlar, otaonalarining talablari, o'yinchoqlar, xalq og'zaki ijodi va yozma badiiy adabiyot namunalari, radio, televideniya, kino, maktab ta'limi, tengdoshlari va sinfdoshlarining fikrlari, ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni ko'rsatish mumkin.

Xovstedning ta'kidlashicha, gender rollardagi farqlar turli madaniyatlarda





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-3, 2026**

gender rollarning farqlanishi orqali namoyon bo‘lib, ular muayyan madaniyatdagi maskulistik va feministik darajalar orqali ifodalanadi. Maskulistik madaniyatdagi shaxslar yutuqlarga erishishning yuqori motivasiyasiga ega bo‘ladilar. Ular hayot mazmunini ko‘plab ishlarni bajarish, doim band bo‘lishda ko‘radilar. Feministik madaniyatga mansub shaxslar esa, oilaviy hayot bilan ko‘proq band bo‘lib, o‘zlari bajaradigan rollarda tenglikka erishishni istaydilar. Buni Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvesiya kabi davlatlarning fuqarolari misolida ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy ta’limda gender masalalari kabi yo‘nalishlarda tadqiqotlar (O.Musurmonova, N.Egamberdieva, R.Samarov, U.Temirova va boshqalar) amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari geder yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik ta’limda gender yondashuv masalalari o‘rganilgan. Olimlarning fikricha, o‘qituvchilarni tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi.

Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender prioritetni muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir.

Ta’limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o‘lchovlarni ajratib olish mumkin. YUNESKO gender tengligiga erishish bo‘yicha quyidagi doiraviy dasturni qo‘llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework):

- ta’lim olishda tenglik deganda yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta’limga





kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi;

- o'quv jarayonidagi tenglik yigit va qizlar o'quv jarayonida adolatli baho va e'tibor olishi, ya'ni ular o'g'il va qiz bolalarni o'qitishning turli xil usullari bilan bog'liq bo'lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib tuzilgan bir xil o'quv dasturlari orqali shug'ullanishini nazarda tutadi; ta'lim natijalaridagi tenglik yigit va qizlarning ta'lim natijalaridagi baholari ularning individual iste'dodi va say-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas;

- tashqi natijalardagi tenglik bu ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo'lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o'z hissasini qo'shishdagi qobiliyati tengligidir.

Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta'lim tizimida genderga oid ta'lim berishning ikki xil yondoshuvi qo'llanilmoqda: "Gender tizimi" tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo'lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o'lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma'nolari ko'p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ldi.

Zamonaviy sharoitda oliy ta'lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli yondashuvlar haqidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo'yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talaba qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim sohasi hamda yoshlar ma'naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi.





JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

Shunday ekan, ta'limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o'qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko'nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko'nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o'rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta'lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni. – 2019 yil 2 sentyabr
<https://lex.uz/docs/-4494849> [Xotin-qizlar teng huquq kafolatlari to'g'risidagi O'RQ-562 02.09.2019](#)
2. O.Jamoldinova, M.Mirsolieva, K.Risqulova. Pedagogik ta'limda gender yondashuvi masalalari// Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorni rivojlantirish: yangi shakllari va ta'lim mazmuni mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – Toshkent, 2020. –B.(99-10-bet, 189 b)
3. Narbaeva T. O'zbekistonda xotin-qizlarini ijtimoiy himoya qilishning innovatsion modeli. Monografiya- T., 2020.
4. 4. Egamberdieva T.A., Siddiqov I.B. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlar ishtirokining zamonaviy omillari.O'quv uslubiy qo'llanma- F:, 2021
5. [Gender tenglik bo'yicha butunjahon statistikasi.](#)
6. [↑ Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati \(PDF\).](#)

